



O'ZBEKISTONGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH VA UNING USTUVORLIKLARI

Butayev Javlonbek Inatillo
o'g'li

TDIU katta o'qituvchisi, doktorant

Safarov Jamshid
Ahmadjon o'g'li

TDIU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalqaro amaliy tajribalar va tadqiqotlarini tahlil qilgan holda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va uning ustuvorliklari, bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizga zarurligi hamda ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar

investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, investor, milliy iqtisodiyot, xorijiy investitsiya, xususiy kapital, investitsion muhit, xorijiy boshqaruv, texnika-texnologiya, resurs, bozor.

Kirish

Bugungi global iqtisodiy sharoitlarda mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonga jalb etilayotgan xorijiy sarmoyalar nafaqat moliyaviy resurslarni oshirish, balki ilg'or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va yangi bozor imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, to'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, yangi ish o'rinlari yaratish va eksportni rivojlantirish uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 29-martdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida to'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati keng yoritilgan. Prezidentning ta'kidlashicha, **“... to'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish — mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va texnologiyalarni joriy etishda eng muhim omil hisoblanadi”**[1]. Ushbu fikr O'zbekistonning investitsiya muhitini yaxshilash va sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratish borasidagi davlat siyosatining ustuvorligini namoyish etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Iqtisodchi Musobek Samijonovning 2023-yilda chop etilgan **“To'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalarning sanoatni rivojlantirishdagi roli”** nomli ilmiy

ishida to'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalarning sanoat tizimidagi transformatsion imkoniyatlari chuqur tahlil qilingan. Muallif fikriga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalar sanoat sohalariga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, ilg'or ishlab chiqarish usullarini joriy etish, malakali ish o'rinlari yaratish hamda ichki bozor ishtirokchilarining raqobatbardoshligini oshirishda beqiyos vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, texnologiya transferi orqali mahalliy korxonalar faoliyatining modernizatsiyasi va ularning global ta'minot zanjirlariga integratsiyalashuvi yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin[1].

Ikrom Navruzovning fikricha, to'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish eng avvalo mamlakatdagi investitsion muhitning sifatiga bog'liqdir. Investitsion muhit deganda institutsional sharoitlar, qonunchilik bazasi, iqtisodiy barqarorlik, erkin bozor infratuzilmalari va sarmoyadorlarning huquqiy manfaatlarini himoya qiluvchi mexanizmlar tushuniladi. Navruzovga ko'ra, ushbu omillar sarmoyadorlar uchun asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi va ular mamlakat tanlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, muallif to'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalar faoliyatini rag'batlantirishda "çeklar tizimi" — ya'ni xorijiy investorlar uchun yaratilgan imtiyozlar tizimini muhim strategik vosita sifatida ko'rsatadi. Bunga soliq yengilliklari, imtiyozli kreditlar, bojxona preferensiyalari, subsidiyalar hamda yer va mulkdan foydalanishda taqdim etiladigan qulayliklar kiradi. Bunday chora-tadbirlar xorijiy kapital oqimini ko'paytirish va ularni uzoq muddatli loyihalarga jalb etishda katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Navruzov davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni to'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalar uchun qulay ekotizim shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etadi. Ayniqsa, xalqaro investitsiya forumlari, biznes missiyalar, yirik iqtisodiy konferensiyalar orqali xorijiy investorlar bilan bevosita muloqot o'rnatilishi, mamlakat imidjining shakllanishi va investitsiya salohiyatining kengayishiga xizmat qilishi qayd etilgan. To'g'ridan-to'g'ridan xorijiy investitsiyalar faqat kapital emas, balki zamonaviy texnologiyalar, menejment tajribasi va yangi bozor aloqalarini olib kirish vositasi sifatida qaralishi lozim. Shu jihatdan, investitsion muhitning raqobatbardoshligi — sarmoyadorlar uchun eng asosiy strategik mezonlardan biridir[2].

Tahlil va natijalar

Ma'lumki, xorijiy investitsiyalar, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning muhim muhim omili va manbai hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tarkibiga: ishlab chiqarish (asosiy va aylanma) fondlari, ularni kengaytirish, qayta qurish va qayta qurollantirishga qo'yiladigan iqtisodiy resurslar; ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma xarajatlari (bino va inshootlar, uy-joylar); pul qiymatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar (qimmatli qog'ozlar, patentlar, texnik va texnologik yangiliklar, loyihalar va boshqa intellektual mulk ob'ektlari)ni kiritadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: investorga investitsiya kiritilayotgan ob'ekt ustidan nazorat qilish huquqini beruvchi ishlab chiqarishga sarflangan uzoq muddatli xorijiy qo'yilmalarni; pirovard maqsadi foyda ko'rinishida daromad olishga qaratilgan tadbirkorlik kapitalining ustuvor shaklini; xususiy kapitalga asoslangan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni; xorijiy investorning investitsiya kiritilayotgan ob'ekt ustidan to'liq egalik qilishini; xorijiy investor tomonidan

investitsiya kiritilayotgan ob'ekti ustav kapitalining 10 %dan kam bo'lmagan qismi ustidan nazorat o'rnatishini; xorijiy investorning investitsiya kiritilayotgan ob'ektlarni boshqarishda samarali qatnashishini; mustahkam iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish hamda korxona ustidan nazorat xuquqini qo'lga kiritish maqsadida kapital va resurslarning transchegaraviy harakatini qamrab oladi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning investitsiya faolligi va kuchli raqobat muhiti yaratilishiga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ❖ integratsiyalashuvni ta'minlagan holda raqobat muhitini ta'minlaydi, raqobatga undaydi;

- ❖ xorij boshqaruv tajribasini qo'llashga undaydi;

- ❖ iqtisodiyot sub'ektlaridan investitsiya faolligini talab etadi;

- ❖ yangi uskuna, jihoz, zamonaviy texnika, texnologiyani qo'llashga chorlaydi;

- ❖ yangi texnika-texnologiya asosida yangi mahsulot ishlab chiqarishni, yangi bozorlarni egallashni nazarda tutadi;

- ❖ investitsiya muhitini takomillashtirib borishni talab etadi;

- ❖ ishlab chiqarishning modernizatsiya qilinishini ta'minlaydi;

- ❖ o'z manfaatlari ustunligini nazarda tutadi;

- ❖ ishonch qozonish uchun kuchli rag'batlantirish, imtiyozlar, kafolatlar tizimini talab qiladi;

- ❖ xorijdan turli aktivlar kirib kelishi asosida qabul qiluvchi mamlakatda iqtisodiyotni yuksaltiradi, soliq, boj, ijara va boshqa tushumlarning ko'payishini ta'minlaydi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning O'zbekistonga kirib kelishi qisqa vaqt ichida mulkchilikning turli shakllarini tashkil topishiga ko'maklashdi, iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishni, nufuzli tarmoqlarning barpo etilishini ta'minladi, eng muhimi, xalqaro bozorga o'z mahsulotlarini olib chiqishini va unda o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minladi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi respublika-mizda xususiylashtirish jarayonlarini tashkil etish bosqichlari bilan bog'liq bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, respublikada iqtisodiy islohotlarning huquqiy poydevorini yaratish ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlari shakllarini belgilab berdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqimlari: O'zbekiston iqtisodiyotida qo'shma korxonalar barpo etilishiga asos soldi; xorijiy korxonalar barpo etilishiga zamin yaratdi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, milliy iqtisodiyotning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish holati ichki bozor hamda eksportning hajmi, tabiiy va mineral resurslar, malakali ishchi kuchi mavjudligi, bozor islohotlarini amalga oshirish sur'atlari, iqtisodiy barqarorlik omillari bilan bog'likdir.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning jozibadorligini belgilovchi omillarni besh guruhga bo'lish mumkin:

- bozor omillari (ichki bozor va eksport imkoniyatlari);

- boy tabiiy resurslarning mavjudligi;

- ishlab chiqarish xarajatlari omillari;

- investitsiya muhiti;

➤ mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning innovatsiya faoliyatiga ta'siri quyidagilarda ko'rinadi:

✚ raqobat muhitini rivojlantiradi va raqobatga bardoshli mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tezlashtiradi;

✚ to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining ko'payishi mamlakat iqtisodiyotiga: a) yangi, zamonaviy, ilg'or texnologiyalar va yuqori unumdorli uskunalarni olib kiradi; b) yangi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarilishi tezlashadi yoki mavjud ishlab chiqarilayotgan mahsulot o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilishi tashkil etiladi; v) yangi bozorlarga chiqish, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, tashqi bozorlarda o'z mavqesini mustahkamlash imkoniyatini beradi;

✚ innovatsiya loyihalarini tatbiq etish va iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgarishlarni ta'minlaydi, pirovardida, iqtisodiyot zamonaviylashadi va jadal o'sib boradi.

Asosiy kapitalni yangilashga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilish bo'yicha davlat olib borayotgan investitsiya siyosati, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni olib keluvchi investorlarga nisbatan "ochiq eshik"lar siyosatining o'tkazilayotganligi, soliq va bojxona imtiyozlarining mavjudligi muhim omil bo'lmoqda.

Xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, XIIKlarni rag'batlantirishga qaratilgan butun bir chora-tadbirlar majmuasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi.

Dunyo mamlakatlari ilmiy tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat mulkining va davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi jamiyatlarning ishlab chiqarish maydonlari va ob'ektlaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni va kichik korxonalarni rivojlantirishni yanada qo'llabquvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning turli vositalaridan foydalanish masalalari keng yoritib berilgan. Jumladan, investitsiyalarni jalb etishning venchurli, konsessiya hamda franchayzing usullariga alohida e'tibor qaratilgan. Ammo hududlar iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni maqsadli yo'naltirish masalalari ilmiy tadqiqotlarda atroflicha o'rganilmagan.

Ma'lumki, har qanday davlat jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyodagi yetakchi davlatlarning ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan turib rivojlana olmaydi. Binobarin, mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti asosan investitsiyalarga, xususan biznesda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakalchilikka va o'zaro ishonchga asoslangan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga bog'liqligini deyarli barcha xo'jalik yurituvchi sub'ekti yaxshi anglaydi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin

emas. Yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'z iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishi bir tarafdin iqtisodiyotni yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish imkonini bersada, ikkinchi tomondan bu jarayonlarni hududlar imkoniyati, tabiiy resurs manbai bilan bog'lagan holda joylashtirish masalasi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Jahon miqyosida investitsion jarayonlar global iqtisodiy o'sish, geosiyosiy barqarorlik va moliyaviy tizimlar faoliyatining asosiy indikatorlaridan biri hisoblanadi. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) hajmi xalqaro kapital oqimlarining eng muhim tarkibiy qismidir. So'nggi yillarda bu ko'rsatkich jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan muhim siljishlar va muammolarni yaqqol ifoda etib kelmoqda. 2022, 2023 va 2024-yillar bo'yicha statistik tahlillar bunga yaqqol misoldir.

2022-yil: global noaniqlik fonida TXI oqimining keskin qisqarishi:

2022-yilda jahon bo'yicha TXI hajmi 1 300 milliard AQSh dollarini tashkil etib, avvalgi yilga nisbatan 12 foizga pasaydi. Ushbu pasayish, asosan, rivojlangan mamlakatlardagi investitsiya oqimining 37 foizga qisqarishi bilan bog'liq bo'ldi. Pandemiyadan keyingi davrda yuzaga kelgan ta'minot zanjiridagi uzilishlar, yuqori inflyatsiya, foiz stavkalarining ko'tarilishi va geosiyosiy ziddiyatlar investorlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramay, rivojlanayotgan mamlakatlar istiqbolida ijobiy tendensiyalar kuzatilib, u yerga kirib kelgan TXI hajmi 4 foizga o'sdi.

2023-yil: barqarorlikka intilish, biroq o'sish sust:

2023-yil global TXI uchun nisbatan barqaror, biroq sust davr bo'ldi. TXI hajmi qariyb 1 330 milliard AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan atigi 2 foizga kamaydi. Bu davrda rivojlangan davlatlardagi investitsiya oqimi 9 foizga o'sgani kuzatildi, ammo bu o'sish umumiy miqdorga sezilarli ta'sir ko'rsata olmadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga TXI oqimi esa 7 foizga qisqarib, global iqtisodiyotda bu mintaqalarning barqaror moliyaviy ta'minotga ehtiyoji yuqoriligini ko'rsatdi. 2023-yil davomida dunyo moliya bozorlarida ehtiyotkorlik, korporativ restrukturizatsiyalar va yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalarning ko'payishi asosiy xususiyatlardan bo'ldi.

2024-yil: statistik o'sish fonida real pasayish:

2024-yilga kelib, TXI bo'yicha dastlabki ko'rsatkichlar global hajmda ijobiy o'sishni anglatgan — 1 400 milliard AQSh dollariga yaqin miqdor qayd etilgan. Biroq UNCTAD (BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi) tomonidan taqdim etilgan aniqlashtirilgan ma'lumotlarga ko'ra, conduit (ya'ni tranzit) davlatlarsiz hisoblangan *real* TXI oqimi aslida 8 foizga kamaygan. Jumladan, rivojlangan davlatlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 15 foizga qisqargan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha bu ko'rsatkich atigi 2 foizga pasaygan.

Mazkur yil davomida investitsiya muhitiga global foiz stavkalarining yuqoriligi, geosiyosiy beqarorlik (jumladan, Ukraina va Yaqin Sharqdagi ziddiyatlar), proteksionistik siyosatlarining kuchayishi hamda "yashil o'sish" va raqamli transformatsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar ta'sir ko'rsatgan[1].

Avvalambor, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda hududlarning imkoniyatlari to'la o'rganilmayotganligini muammoning ildizi sifatida baholash mumkin.

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish, ularni ko'lamini oshirish qabul qiluvchi hududning innovatsion faoliyatiga, salohiyatiga bog'liq. Hududlarni innovatsion faoliyatini baholash uchun, ularda yetarli darajada innovatsion salohiyat bo'lishi zarur. Shuning uchun hududlarni innovatsion salohiyatini baholashda to'g'ri usulni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, "innovatsion salohiyat" hududni iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan va darajasini oshirish imkonini beradigan ko'rsatkichlar orqali baholash tushuniladi. Bundan kelib chiqib "hududni innovatsion salohiyati" bu hududni innovatsion faoliyati va iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlar, jumladan hududdagi ilmiy kadrlar, texnik holat, moliyaviy iqtisodiy salohiyati, investitsiyalarni jalb etilishi va axborotkommunikatsiyaon faoliyatlari tashkil etadi. Hududlarni innovatsion salohiyatini baholashda taklif etilayotgan model (INS-5)dan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Hududlarni innovatsion salohiyatini kompleks baholashda ushbu universal model ularning natijasi asosida qaysi yo'nalishlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish zarurligini aniqlash imkonini beradi.

Ayni vaqtda respublikamizda investitsiya faolligini ta'minlovchi erkin kapital bozori shakllanganicha yo'q. Shu sababli, investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlaridan foydalanish sustligicha qolmoqda hamda investitsiyalarni bilvosita moliyalashtirish mexanizmlarining keng ishlatilishi hamon bank risklari darajasi yuqoriligicha qolayotganligini tasdiqlamoqda.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, mamlakat iqtisodiyotni moliyalashtirishda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilishga ustuvorlik berish, buning uchun qulay shart-sharoit yaratish (imtiyozlar va boshqalar), moliyalashtirishning turli usullaridan (masalan, xalqaro lizing) faol foydalanish, foiz stavkalarini diversifikatsiyalash, yangi texnika-texnologiyalarni o'zlashtirishda chet el kreditlari va investitsiyalarini iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalq so'zi, 2021, <https://xs.uz/uz>.
2. "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sanoatni rivojlantirishdagi roli" 2023, [«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali](#).
3. "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati" (2023), [Евразийский журнал академических исследований](#).
4. UNCTAD World Investment Report 2024.
5. UNCTAD Global Investment Trends Monitor, January & June 2024.
6. World Bank Global Economic Prospects, 2023–2024.